



SHARTNOMA №_____
XORIJIY VALYUTADAGI MUDDATLI BANK OMONATI
"VALYUTAVIY"

_____ sh. "____" _____ 20__ yil

Bundan buyon "Bank" deb ataladigan "Tenge Bank" aksiyadorlik tijorat banki nomidan _____, 20__ yil "____" _____ dagi _____-sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi, bir tomondan va _____, bundan buyon "Omonatchi" deb ataladigan, ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar" deb ataluvchilar, quyidagilar to'g'risida ushbu Shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

- 1.1. Omonatchi _____ (*so'z bilan yozilgan summa*) miqdoridagi xorijiy valyutadagi pul mablag'ini (bundan buyon matnda "Omonat" deb yuritiladi) № 20606 _____-sonli muddatli depozit hisobvarag'iga joylashtirish uchun topshiradi, Bank esa uni qabul qilish, Omonatni to'ldirish (qo'shimcha badal) imkoniyati bilan, va ko'rsatilgan summani qaytarish majburiyatini oladi
- 1.2. Ushbu Shartnomaning tuzilganligi va Omonatlarga pul mablag'lari kiritilganligi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan yozma hujjat (kirim kassa orderi/memorial order) bilan tasdiqlanadi.
- 1.3. Shartnoma **6 oy muddatga**, _____ **dan** _____ **gacha** tuziladi.

2. Omonat shartlari

- 2.1. Omonat summasini hisobga olish uchun Omonatchiga № 20606 _____-sonli hisobvaraq ochiladi
"Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari". Hisobvaraq Omonatchi Bankka tashrif buyurganda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda ochiladi.
- 2.2. **Omonat shartlari:**
 - Omonat turi - muddatli
 - Foiz stavkasi - **4%** yillik;
 - Omonat muddati - **6 oy**;
 - Omonatning minimal miqdori - **100,00** (yuz) AQSH dollari, 00 sent;
 - Omonatning maksimal miqdori - cheklanmagan;
 - Qo'shimcha badal - nazarda tutilgan;
 - Qisman yechib olish (asosiy summani) - nazarda tutilmagan;
 - Uzaytirish - ko'zda tutilmagan;
 - Foizlarni to'lash tartibi - har oyda omonat valyutasida, Omonatchining "20206" talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkazish orqali.
- 2.3. Ushbu Shartnoma asosida Omonatchiga ochilgan bank hisobvaraqlari Shartnoma muddati tugagach (Omonat qoldig'i bo'lmaganda) yopiladi.
- 2.4. Omonatga pul mablag'lari naqd pul shaklida ham, boshqa omonat hisobvaraqlaridan o'tkazish yo'li bilan ham, Omonatchining o'zi yoki uning qonuniy vakili tomonidan kiritilishi mumkin.
- 2.5. Omonatga naqd pul mablag'larini kiritish kassa kirim orderi asosida, naqd pulsiz mablag'larni kiritish esa Omonatchining yoki uning qonuniy vakilining arizasi asosida amalga oshiriladi.
- 2.6. Omonat bo'yicha foizlar 2023-yil 29-sentyabrdagi 3460-sonli "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq har kuni hisoblanadi. Bunda, bir yildagi kunlar soni 365 kun deb qabul qilinadi.

2.7. Omonat summasiga foizlar u Bankka kelib tushgan kundan keyingi kundan boshlab, Omonatchiga qaytarilishidan yoki Omonatchining hisobvarag'idan boshqa asoslarga ko'ra hisobdan chiqarilishidan oldingi kungacha hisoblanadi. Bank Omonatchining hisobvarag'iga taqiq qo'yilganligi va/yoki Omonatchining hisobvarag'i bo'yicha operatsiya to'xtatilganligi sababli ushbu hisobvaraqdagi pul mablag'laridan foydalana olmagan davrda foizlar hisoblanmaydi.

2.8. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi talablariga muvofiq (30-, 366- va 382-moddalar), soliq rezidenti maqomiga ega bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi norezident omonatchilaridan Bank tomonidan omonat bo'yicha to'lanadigan foizlar (daromadlar) summasidan to'lov manbaida soliq ushlab qolinadi va keyinchalik byudjetga o'tkaziladi.

2.9. Omonat yopilganda asosiy summa va qo'shimcha badallar avtomatik ravishda Omonatchining 20606 "Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari" hisobvarag'idan Omonatchining 20206 "Talab qilib olinguncha depozit" hisobvarag'iga o'tkaziladi. 20206 "Talab qilib olinguncha depozit" hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'iga foizlar hisoblash talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat shartlariga asosan amalga oshiriladi.

2.10. Agar omonat muddati tugashi munosabati bilan qaytarish kuni dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to'g'ri kelsa, omonat berish dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlaridan keyingi birinchi ish (bank) kunida amalga oshiriladi. Bunda dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlari uchun foizlar hisoblanmaydi.

2.11. Agar Omonatchi omonatning butun summasini uning muddati tugashidan oldin qaytarishni talab qilmoqchi bo'lsa, u omonatni olish rejalashtirilgan sanadan kamida bir oy oldin yozma ariza topshirish orqali Bankni bu niyati haqida xabardor qilishi shart.

2.12. Omonatchining talabiga ko'ra omonatning barcha summasi qaytarilgan taqdirda, omonatning asosiy summasi hisoblangan foizlarsiz to'lanadi. Agar foizlar Omonatchiga ilgari to'langan bo'lsa, ilgari to'langan foizlar summasi omonatning asosiy summasidan ushlab qolinadi.

2.13. Omonatni berish, u bo'yicha foizlarni to'lash, shuningdek Omonatchining yoki uning qonuniy vakilining ushbu Omonat bo'yicha barcha ko'rsatmalarini bajarish Bank tomonidan shaxsni va qonuniy vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandagina amalga oshiriladi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1 Bank quyidagilarga majbur:

- Omonatchiga muddatli omonat shartlarini tanishtirish va batafsil tushuntirish;
- Omonatchidan uning pasport ma'lumotlari, yashash joyi va aloqa telefonlariga kiritilgan o'zgarishlar haqida ma'lumot so'rash va olish.
- Ushbu Shartnoma imzolangandan so'ng Omonatchiga hisobvaraqlar ochish;
- Omonatchidan yoki uning vakilidan (ishonchnoma asosida) ushbu Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan Omonat summasini va qo'shimcha badallarni qabul qilish hamda uning 20606 "Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari" depozit hisobvarag'iga o'tkazish;
- Omonatchiga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan tasdiqlovchi hujjatni (kirim kassa orderi/memorial order) berish;
- Ushbu Shartnomaning 2.2., 2.6., 2.7-bandlariga muvofiq Omonatchi yoki uning vakillari (ishonchnoma asosida) talabiga ko'ra foizlarni hisoblash va to'lash;
- Omonat muddati tugagach, Shartnomaning 2.2., 2.9. va 2.10-bandlariga muvofiq qo'shimcha badallar bilan birga Omonat summasini qaytarish;
- Hisobvaraqlardagi mablag'larning saqlanishi va daxlsizligini ta'minlash. Hisobvaraqlardagi mablag'larni xatlash yoki hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina amalga oshirilishi mumkin;
- O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq, norezidentga (soliq rezidenti maqomi bo'lmagan holda) ochilgan omonat bo'yicha to'lanadigan foizlar (daromadlar)dan to'lov manbaida soliq summasini to'g'ri hisoblash, ushlab qolish va O'zbekiston Respublikasi budjetiga o'tkazishni ta'minlash;
- Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning xavfsizligini kafolatlash, Omonatchi va omonat haqidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga faqat amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda va tartibda taqdim etish;

- Omonatchi talab qilib olinguncha omonat ochganda, uning arizasi asosida SMS va elektron pochta orqali xabardor qilish hamda mobil banking kabi axborot xizmatlariga ulash;
- Omonatchini quyidagilar haqida xabardor qilish: - uning bank omonatidan pul mablag'larini akseptsiz yechib olinganligi to'g'risida, yechib olish sanasidan keyingi ish kunidan kechiktirmay, sababi, kimning foydasiga va yechib olingan summa miqdorini ko'rsatgan holda;
- Omonatchining bank omonati bo'yicha operatsiyalar to'xtatilganligi haqida bank operatsiyalari to'xtatilgan sanadan keyingi ish kunidan kechiktirmay, to'xtatish sababini ko'rsatgan holda xabar berish. Tegishli bildirishnoma Omonatchiga uning tanloviga ko'ra quyidagi usullardan biri orqali yuboriladi:
 _____(shaxsan); _____(pochta orqali); _____(elektron aloqa vositalari orqali: SMS xabarnoma/elektron pochta manzili);

- Omonatchining yozma arizasiga ko'ra, uning boshqa mobil telefon raqamlari/elektron pochta manzillarini axborot xizmatlariga ulash, shu jumladan oldingilarini o'chirish;

3.2 Bank quyidagi huquqlarga ega:

- Omonatchidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, shuningdek qonuniy vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatni talab qilish, ulardan nusxa olish/skanner qilish;
- Omonat muddati tugagach, Omonat summasini va unga hisoblangan foizlarni talab qilib olinguncha bo'lgan depozitga o'tkazish;
- Tegishli davlat organlarining ijro hujjatlari kelib tushgan taqdirda, Omonatchining e'tirozlaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda choralar ko'rish (pul mablag'larini xatlash, pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarish, hisob bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish va boshqalar);
- Omonatchi tomonidan Omonat summasi muddatidan oldin talab qilib olinganda, 2.12-bandga muvofiq foizlarni to'lash;
- Omonat hisobidagi pul mablag'lari bo'yicha bank operatsiyalari uchun ko'rsatilgan xizmatlar evaziga Bankning belgilangan tariflariga muvofiq komission to'lovlarni undirish;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Bank Omonatchidan uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi va hisob bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish huquqiga ega;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish yoki ularni bajarishni rad etish;
- Bank yangiliklari, Bankning axborot, reklama materiallari va tijorat takliflarini, shuningdek, Omonatchining hisobvaraqlaridan amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni pochta jo'natmalari, elektron aloqa vositalari, SMS xabarlar orqali ushbu Shartnomada Omonatchi ko'rsatgan manzillar/telefon raqamlariga yoki boshqa usulda yuborish. Omonatchi yuborilgan xat-xabarlarining uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lishi bilan bog'liq barcha xavf-xatarlarni o'z zimmasiga oladi;
- Omonatchining qo'shimcha ko'rsatmalarisiz uning barcha hisobvaraqlaridan Omonatga noto'g'ri o'tkazilgan pul mablag'lari va/yoki Omonat summasiga ortiqcha hisoblangan/to'langan foizlar miqdorida pul mablag'larini yechib olish.

3.3 Omonatchi quyidagilarga majbur:

- muddatli bank omonati shartlari bilan tanishish, omonat bo'yicha to'ldirilgan hujjatlarni o'z imzosi bilan tasdiqlash;
- Ushbu Shartnoma shartlariga rioya qilish;
- Hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amaldagi qonunchilikka qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vakolatli organlarning me'yoriy hujjatlariga muvofiq;
- Bankning talabiga ko'ra ushbu shartnomaga muvofiq so'ralgan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish;
- Hisobvaraqlarga xato o'tkazilgan va/yoki hisobvaraqlardan noto'g'ri yechib olingan mablag'lar aniqlangan taqdirda, bu haqda zudlik bilan Bankka xabar berish va hisobvaraqlardan tadbirkorlik

faoliyati bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanmaslik;

- Bank tomonidan Omonatga pul mablag‘lari xato o‘tkazilgan taqdirda, Omonatchi Bankka Omonatchining qo‘shimcha ko‘rsatmalarisiz Omonatchining barcha hisobvaraqlaridan Omonatga xato o‘tkazilgan pul mablag‘lari va/yoki Omonat summasiga ortiqcha hisoblangan/to‘langan foizlar miqdorida pul mablag‘larini yechib olish huquqini beradi va rozilik bildiradi (oldindan berilgan aksept).
- O‘zining manzili, telefon raqamlari, shu jumladan mobil telefon raqami, familiyasi, ismi yoki otasining ismi o‘zgarganligi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat almashtirilganligi to‘g‘risida Bankni yozma ravishda xabardor qilish.

3.4 Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

- Pul mablag‘lari qabul qilingandan va omonat hisobvarag‘iga o‘tkazilgandan so‘ng, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan tasdiqlovchi hujjatni (kirim kassa orderi/memorial order) olish;
- Omonat bo‘yicha operatsiyalar va Tariflar haqidagi ma‘lumotlarni SMS-xabarlar, Bankning mobil ilovasi orqali, shuningdek, Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shaxsiy kabinet orqali olish- www.tengebank.uz O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq omonatni shaxsan tasarruf etish yoki notarial tasdiqlangan ishonchnoma rasmiylashtirish orqali omonatni tasarruf etish huquqini uchinchi shaxslarga berish;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Omonatchining boshqa huquqlaridan foydalanish.

4. Tomonlarning javobgarligi

4.1. Shartnoma bo‘yicha tomonlarning o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, Shartnoma shartlarini buzgan tomon O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgarlikni zimmasiga oladi.

4.2. Omonatchi Omonat va Omonat bo‘yicha operatsiyalar haqidagi ma‘lumotlarni Omonatni rasmiylashtirishda ko‘rsatilgan mobil telefon orqali, shuningdek Bankning mobil ilovalari orqali olgan ma‘lumotlarning xavfsizligi uchun javobgardir.

4.3. Agar tegishli bajarish yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari, ya‘ni ushbu sharoitlarda favqulodda va oldini olib bo‘lmaydigan holatlar, tabiiy sharoitlar tufayli, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarori asosida majburiyatlarni bajarish kechiktirilganligi (moratoriy) sababli, yoki tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi qonun yoxud boshqa hujjatning amal qilishi to‘xtatilganligi tufayli mumkin bo‘lmasa, tomonlar Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni to‘liq yoki qisman bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

4.4. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

- Omonatchining shaxsiy kabinetlarga va/yoki mobil bankingga kirish uchun login va parolni uchinchi shaxslarga oshkor qilishi;
- Omonatchining mobil banking xizmatlari, SMS va elektron pochta xabarlar orqali olingan ma‘lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilishi;
- Omonatchi tomonidan uyali telefon raqami va/yoki elektron manzil noto‘g‘ri taqdim etilganda, shuningdek, axborot xizmatlariga ulangan uyali telefon raqami va/yoki elektron manzil o‘zgarganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Bankka o‘z vaqtida taqdim etilmaganda, yuborilgan SMS va elektron xabarlar hamda mobil banking xizmati orqali taqdim etilgan ma‘lumotlarni oshkor qilganlik uchun.

5. Boshqa shartlar

5.1. Ushbu Shartnomani imzolash orqali Omonatchi Bankka o‘z faoliyatini amalga oshirish, ushbu Shartnoma shartlarini bajarish va qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa maqsadlarda Mijozning har qanday shaxsiy ma‘lumotlarini qayta ishlash va foydalanishga muddatsiz rozilik beradi.

5.2. Ushbu shartnomani bajarish bilan bog‘liq nizolar taraflar o‘rtasida muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Nizolarni muzokaralar orqali hal etish imkoni bo‘lmasa, ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida ko‘rib chiqiladi.

5.3. Omonatchi Bank operatsion kunining muddatlari, Bank tomonidan omonatchilarga xizmat ko‘rsatish va ish vaqti to‘g‘risida xabardor qilingan.

5.4. Bank hisobvaraqlar bo‘yicha farmoyishlarni faqat Omonatchidan yoki uning qonuniy vakilidan o‘zi belgilagan tartibda qabul qiladi.

- 5.5. Bank tomonidan omonatga qabul qilingan pul mablag'larining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 5-apreldagi "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi 360-II-sonli Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi banklaridagi fuqarolar omonatlarini kafolatlash jamg'armasi tomonidan kafolatlanadi.
- 5.6. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan hollarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Omonat pasporti talablariga amal qiladilar.
- 5.7. Mazkur Shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada - har bir Tomon uchun bir nusxadan tuzildi. Shartnomaning har bir nusxasi bir xil yuridik kuchga ega.
- 5.8. Ushbu Shartnomani imzolash bilan Omonatchi "Tenge Bank" ATBda qabul qilingan omonat operatsiyalarini amalga oshirish tartibiga va ushbu "Valyuta" muddatli bank omonatining barcha shartlariga rozilik beradi.
- 5.9. Ushbu Shartnoma Omonatchi tomonidan o'z familiyasi, ismi, otasining ismini o'z qo'li bilan yozish va imzo qo'yish orqali imzolanishi shart.
- 5.10. Tomonlar shunday kelishib oldilarki, Bank tomonidan "Bank siri to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan hollarda uchinchi shaxslarga, shuningdek, Bank tomonidan Omonat egasiga mobil banking, SMS va elektron pochta orqali xabardor qilish hamda shaxsiy WEB kabinet kabi axborot xizmatlarini ko'rsatishga qaratilgan texnik xizmatlarni ko'rsatuvchi shaxslarga bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni xabar qilish yoki taqdim etish bank sirini oshkor qilish hisoblanmaydi.

6. Korrupsiyaga qarshi shartlar.

- 6.1. Mazkur Bitim bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari:
- noqonuniy imtiyozlar yoki boshqa g'ayriqonuniy maqsadlar va/yoki foyda olish uchun biror shaxsning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir o'tkazish maqsadida, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, hech qanday pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar yoki to'lashga ruxsat bermaydilar;
 - qonunchilikda pora berish/olish, tijorat poraxo'rliqi sifatida tavsiflanadigan harakatlarni, shuningdek, jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar.
- 6.2. Ushbu Shartnomaning har bir tomoni boshqa tomonni (Bank xodimlarini) rag'batlantirishdan voz kechadi, jumladan ularga pul mablag'lari, sovg'alar berish, bepul ishlar (xizmatlar) ko'rsatish va Bank xodimini ma'lum bir qaramlikka soladigan hamda ushbu Bank xodimi tomonidan uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga biror harakatlarni amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan boshqa usullar bilan rag'batlantirishdan o'zini tiyadi.
- 6.3. Agar biror Tomonda korrupsiya yoki firibgarlik holatlari sodir bo'lganligi yoki sodir bo'lishi mumkinligi haqida shubha paydo bo'lsa, tegishli Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilishi shart.
- 6.4. Xabardor qilingan tomon korrupsiyaviy faoliyat amalga oshirilganligi fakti tasdiqlanguncha ushbu bitim bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.
- 6.5. Taraflar pora berish/olish natijasida yetkazilgan zararni qoplash yoki pora berish/olish to'g'risida ataylab noto'g'ri ma'lumot berganlik uchun javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar.

7. Tomonlarning yuridik manzillari:

"BANK"

"Tenge Bank" ATB

Manzil:

Tel: _____

MFO: _____

STIR: _____

(imzo)

"OMONATCHI"

F.I.O.

Tug'ilgan sana: Fuqaroligi: _____

Pasport ma'lumotlari/ ID: _____

seriya va raqami: _____

berilgan sana va joy: _____

JSHSHIR: _____

Ro'yxatdan o'tgan manzil: _____

Telefon: + (_____) _____

Omonatchining imzosi va F.I.O.:

(Omonatchi o'z qo'li bilan to'ldiradi)